

BADIIY MODELLASHTIRISH VA DIZAYN

*Abdupattoyeva Nazokat Baxtiyorjon qizi,
Olimova Fotimaxon Rustamjon qizi,
Andijon davlat pedagogika instituti
Aniq fanlar fakulteti texnologik ta'lim yo'nalishi
301-guruh talabalari
Zuhriddinova Nilufar Nusrat qizi,
Fizika va texnologiya kafedrası
texnologiya fani o'qituvchisi*

ANNOTATSIYA

Ushbu tezisdá zamonaviy madaniyatning eng yosh va tez rivojlanayotgan sohalaridan biri bo'lmish dizayn va badiiy modellashtirish haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: dizayn, badiiy modellashtirish, dizayner, fan-texnika, muhandislik-konstruktorlik, iqtisodiy faoliyati, garmonik forma va kompozitsiya.

АННОТАЦИЯ

В данной дипломной работе говорится о дизайне и художественном моделировании, которые являются одной из самых молодых и быстроразвивающихся областей современной культуры.

Ключевые слова: дизайн, художественное моделирование, дизайнер, наука и техника, техника и строительство, хозяйственная деятельность, гармоническая форма и композиция.

ANNOTATION

This thesis discusses design and artistic modeling, one of the youngest and fastest growing areas of modern culture.

Keywords: design, artistic modeling, designer, science and technology, engineering and construction, economic activity, harmonic form and composition.

KIRISH. Dizayn - ingliz tilidan olingan bo'lib, chiroyli, shinam, yaxshi loyiha degan ma'noni anglatadi. Dizayner esa - kuchli rassom - konstruktor. Buyum bilan har qanday tanishish ma'lum darajada unga baho berish bilan bog'liq. Baho berish funktsional, estetik, ijtimoiy - nufuzli bo'lishi mumkin. Buyumlar olamini loyihalash bilan shug'ullanadigan kishi o'zining pirovard maqsadiga - chiroyli buyum yaratishga harakat qilar ekan, birinchi navbatda mazkur buyumning estetik qiymati nimadan iborat ekanligini bilishi lozim.

Dizayn zamonaviy madaniyatning eng yosh va tez rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Shu munosabat bilan uning nazariyasini ishlab chiqishga bolgan ehtiyoj kun sayin oshib bormoqda. Bu o'z-o'zidan tushunarlidir, chunki shunday qilinganda uning

oldiga zamonaviy amaliyot tomonidan qo'yilgan dolzarb muammolarni shunchalik tez hal etish mumkin. Shu haqiqatni ochiq aytish lozim, bizning mamlakatimizda dizayn imkoniyatlaridan tola ravishda foydalanilayotgani yo'q. Bu borada vujudga kelgan muammoni tushunish mumkin; chunki birinchidan, dizaynerlik faoliyatining nihoyatda murakkabligi bo'lsa, ikkinchidan, uning fan-texnika, muhandislik-konstruktorlik, iqtisodiy faoliyati bilan bog'liqligidir, uchinchidan, jamiyatning ijtimoiy-madaniy hayoti bilan chambarchas bog'lanib ketganligidir.

Shu boisdan dizaynning nazariy muammolari ko'p qirrali bo'lib, u turli nazariy bosqichlarda o'zining o'rganib chiqilishini talab etadi. Modomiki, dizayn ommaviy sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda foydalanilar ekan, uni moddiy ishlab chiqarish va iste'mol tizimida ro'y beradigan jarayonlar munosabati bilan ko'rib chiqish lozim bo'ladi. Ayni zamonda dizayn muammosini nazariy jihatdan ishlab chiqishni uning zamonaviy madaniy hayot tizimida yetakchi o'rin tutishidan ayricha holatda hisobga olmasdan turib, hal etish mumkin emas, zero dizayn moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishda, texnika va san'at o'rtasida o'ziga xos ko'prik vazifasini bajaradi.

Badiiy modellashtirishning mazmuni. Buyumning tashqi formasi geometrik shakllar paralelepiped, prizma, silind, konussimon.

Nisbatlar-bu tushuncha kontrasli va farqi nisbatlar bir biri bilan mustahkam bog'liq (hajmini, chiziqli miqdorlarini, fakturalarini, ranglarini) Hajmi fazoviy tuzilish(frontal, fazoviy). Ma'lumki har qanday buyum uch o'lchovga ega bo'lib, bu o'lchovlar nisbatini biz hamisha xis qilib turamiz. Shu sababli buyumning hajmiga doir xarakteristikalarini uning asosiy o'lchovlariga bog'liq bo'ladi. Material obekt qanday materialdan tayyorlanganligi ham juda katta ahamiyatga ega.

Garmonik forma va kompozitsiya tushunchasi. Garmonik forma go'zallik qonunlari asosida yaratiladi. U uzviy va yahlit qismlari proporsional va ritmik bo'lib, u odamga va atrofdagi bo'limlarga mos plastik bo'ladi., rangi ko'zni quvontiradi. Dizaynda kompozitsiya deganda ba'zan tugallangan obektni xarakterlovchi sifat bahosi tushuniladi. Dizayn nazariyasi xozirgi kunda texnik estetika deb nomlanib, u o'z ichiga ijtimoiy, iqtisodiy, ergonomik masalalarni oladi. Yaratilayotgan har qanday obekt ma'lum vazifani (funktsiyani) bajarishga qaratilgan. Obektning shakli, o'lchami uning funksiyasiga shakl mazmuni va tashqi qiyofasiga mos kelishi kerak.

Agar buyumning eni va balandligi chuqurligidan nihoyatda katta bo'lsa, bunday tuzilishi frontal, agar buyumning chuqurligi yuqorida aytilgan tartibda bo'lsa, u holda bunday tuzilishni faoviy tuzilish deyiladi.

XULOSA. Dizaynning kundalik loyihadan farqi shundaki, dizayn ishtirok etishi bilan biz sifat jihatdangina emas, samara jihatidan ham yangi bosqichga ega bo'lamiz. Texnik loyihalash u yoxud bu buyumga yangi funksiya bag'ishlay olmaydi yoxud o'sha buyumni faqat bitta, ixtisoslashgan funksiyasiga moslashtiradi. Hali bu fikrlarning hammasi ham dizayn haqida hamma fikrlarni anglata olmaydi.

Sanoat mohiyatida dizayn yetakchi o‘rin tutadi. Dizayn orqali sanoat loyihalashi ijtimoiy-madaniy impulslar kasb etadi, dizayn orqali madaniyat va texnikaning hukmronlik qiluvchi aloqasi hukm suradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bekmuratova M. Texnikaviy ijod va dizayn.-T.: Fan va texnologiya, 2004.
2. Muslimov N.A., Sharipov Sh.S. Texnik ijodkorlik va dizayn.- T.: «Iqtisod Moliya» 2009.
3. Boltaboyev S.A., Ismoilova M.M. Kasb ta'limi metodikasi fanidan kurs ishlari. Metodik qollanma. -T.: TDPU, 2002.
4. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. -Toshkent: Fan, 2004..